




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI CHAMATKARLIK VA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushılyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

O'ZBEK VA TURK MAQOLLARIDA BADIY TASVIR VOSITALARI

ARTISTIC DEVICES IN UZBEK AND TURKISH PROVERBS

O'g'iloy G'ANIYEVA,
TOSHDOTAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CWQQ2032

Annotation. *This article provides a comparative analysis of the artistic expressive devices used in Uzbek and Turkish folk proverbs. It highlights the role of folklore examples in reflecting the people's spirituality, worldview, and aesthetic thinking, and reveals the specific features of literary devices such as metaphor, hyperbole, symbolic imagery, repetition, and contrast found in proverbs. During the research, the semantic similarities and national distinctive features of Uzbek and Turkish proverbs are analyzed based on examples. In addition, the importance of artistic devices in expressing folk wisdom in a vivid and impactful way is demonstrated.*

Key words: *folklore, proverb, Uzbek proverbs, Turkish proverbs, artistic devices, metaphor, hyperbole, symbolic image, folk wisdom, comparative analysis, oral literature.*

Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy tajribasi, dunyoqarashi va estetik tafakkuri folklor namunalari orqali avloddan avlodga yetib keladi. **"Folklor"** atamasi aslida "folk" – xalq va "lore" – donolik so'zlaridan yasalgan bo'lib, "xalq donoligi, xalq donishmandligi" ma'nolarini anglatadi. Uni birinchi marta 1846-yilda Uilyam Toms ilmiy istiloh sifatida qo'lladi. Shundan boshlab bu istiloh xalqaro miqyosda ilmiy taomilda o'zlashib ketdi. Shunga qaramay, Angliya, AQSh va boshqa ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda bu termin keng ma'noda xalq ijodining barcha sohalarini – xalq poeziyasi, xalq nasri, musiqasi, raqsi, rassomlik, o'ymakorlik, diniy e'tiqodi va odatlarini ifodalasa, boshqa tillarda so'zlashuvchi xalqlarda, asosan, so'z san'atini – xalq og'zaki poetik ijodi tushunchasini ifoda etadi. O'zbek folklorshunosligi tarixida **"folklor"** istilohi nisbatan keyinroq ilmiy iste'molga kirdi. U dastlab "el adabiyoti", "og'zaki adabiyot", "og'zaki ijod" tarzida qo'llanildi. 1935-yilda H.Zarif va Sh.Rajabiyning "O'zbek sovet folkloridan namunalar" kitobi bosilib chiqqandan keyin mazkur istilohni qo'llash taomilga kira boshladi va asta-sekin **o'zbek folklori** tushunchasi zahirida o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi tushuniladigan bo'ldi.

O'zbek folklori xilma-xil janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, xalqimizning dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijodiy salohiyati, orzu va intilishlarini aks ettiradi.

Qadimiy turkiy dunyo ma'naviyati, madaniy merosi va til boyligini o'rganishda bizgacha yetib kelgan eng muhim manbalardan biri, shubhasiz, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridir. Ushbu manba nafaqat turkiy tilshunoslikning ilk va eng yirik yodgorligi, balki xalq hayotining turli qirralarini qamrab olgan bebaho qomus sifatida ham ahamiyatlidir. Olim ushbu tilning ichki imkoniyatlarini dunyoga ochishga bel bog'lar ekan, barcha turkiy xalqlar uchun tushunarli bo'lgan umumiy adabiy til me'yorlarini belgilab beradi, uni "turkcha", yana bir o'rinda "xoqoniya tili" sifatida yuksakka ko'taradi.

"Devon"da xalq og'zaki ijodi namunalaridan, xususan, maqollar, dostonlar, qo'shiqlar va turli iboralardan keng foydalanilgani, turli shevalar xalq tilidan yozib olingani asarning boy va serqirra xususiyatlarini namoyon etsa, qisqalik, tezkorlik va jarangdorlik turkiy tilning qadimiy jang tili sifatida yashab kelganidan dalolat beradi.

"Devon"da turkiylarning jangda qo'llagan tadbirlari haqida turli misollar uchraydi. Turkiylar orasida tuzoqqa tushirish, firib berishning ko'plab usullari mavjud bo'lgan. Ular bu jarayonni "Al" deb atashgan. Bu xususida "Devon"da ko'plab maqollar keltiriladi. Masalan, "Alin arslan tutar, kuchun uyuk tutmas". Ma'nosi: arslonni kuch bilan emas, hiyla bilan tutish mumkin. "Uyuk"ni tutishga kuch ham kerak emas. Bu yerda "uyuk" so'zi bizga notanish. U ekinzorlarni

qushlardan qo'rish uchun yasalgan cho'p-odamni anglatadi. Demak, haqiqiy kuch aql-zakovatda. Behuda jonsiz narsaga qarshi chiqish bema'nilikdir.

O'zbek va turk maqollari asrlar davomida shakllangan xalq donishmandligining yorqin namunasi hisoblanadi. Ular qisqa, lo'nda va mazmunan chuqur bo'lib, xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi hamda axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etadi. Maqollarning ta'sirchanligi esa ko'p jihatdan ularda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalariga bog'liq. Aynan shu vositalar orqali oddiy fikr obrazli, esda qolarli va ta'sirchan shaklga ega bo'ladi. Shu bois o'zbek va turk maqollaridagi badiiy tasvir vositalarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari turli shakllarda namoyon bo'lib, ular orqali xalqning tafakkuri va hayotga munosabati ifodalanadi.

Masalan, o'zbek xalq maqollaridan biri bo'lgan **“Achchiqni achchiq kesar”** maqoli turk tilidagi **“Acıyı acı bastırır”** maqoli bilan mazmun jihatdan mushtarak hisoblanadi. Har ikki maqolda ham inson hayotidagi muammo, dard yoki qiyinchilikni unga o'xshash kuch vositasida yengish mumkinligi ifodalanadi. Mazkur maqollarda takror badiiy tasvir vositasi qo'llangan bo'lib, o'zbekcha variantda **“achchiq”**, turkcha variantda esa **“acı”** so'zlari ikki marotaba takrorlangan. Bu usul maqolning ta'sirchanligi va ohangdorligini kuchaytiradi. Shuningdek, maqollarda metaforik ma'no ham mavjud. **“Achchiq”** va **“acı”** so'zlari faqat ta'm ma'nosida emas, balki hayotdagi iztirob, dard va qiyinchiliklarni ham anglatadi. O'zbekcha maqolda **“kesar”** fe'li, turkcha maqolda esa **“bastırır”** fe'li qo'llangan bo'lib, bu hol o'zbek maqolining obrazlilikini yanada kuchaytirgan.

Yana bir o'zbek xalq maqollaridan biri bo'lgan **“O'ng qo'ling bersin, chap qo'ling bilmasin”** maqoli turk tilidagi **“Bir elin verdigini öbür elin görmesin”** maqoli bilan mazmun jihatdan o'xshash hisoblanadi. Har ikki maqolda ham yaxshilik va saxovatni oshkora qilmay, kamtarlik bilan amalga oshirish g'oyasi ifodalangan. Ushbu maqollarda qarama-qarshi obrazlar orqali badiiy tasvir hosil qilingan bo'lib, **“o'ng qo'l – chap qo'l”** hamda **“bir el – öbür el”** birliklari o'zaro taqqoslangan holda qo'llangan. Bu usul maqolning ta'sirchanligi va obrazlilikini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, maqollarda ko'chma ma'no ham mavjud bo'lib, qo'l obrazlari insonning o'zi hamda uning amalga oshirayotgan ishlarini anglatadi. O'zbekcha maqolda **“bilmasin”**, turkcha maqolda esa **“görmesin”** fe'llari ishlatilgan. Turkcha variantda ko'rish, o'zbekcha variantda esa bilish orqali ma'no ifodalangan bo'lsa-da, har ikki maqolning asosiy g'oyasi bir xil – yaxshilikni minnat qilmasdan bajarishdir.

O'zbek maqoli **“Yolg'onning oyog'i kalta”** da metafora qo'llanilgan bo'lib, yolg'on jonli mavjudotga o'xshatilib tasvirlanadi. Turk tilida ham **“Yalanın ayağı kısa”** shaklida ayni badiiy tasvir uchraydi.

Yana bir o'zbek maqoli **“Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber”** bo'lib, bunda **“tuz”** ramziy ma'noda yaxshilik va mehmondo'stlik timsolidir. Turk maqolida **“Bir fincan kahvenin kırk yıl hatırı vardır”** deyiladi. Bu yerda **“qahva”** yaxshilik va do'stlikni ifodalovchi obraz sifatida keladi.

O'zbek maqoli **“Daraxt mevasidan bilinadi”** da inson uning ishlari orqali baholanishi metafora orqali berilgan. Turk maqolida ham **“Ağaç meyvesinden belli olur”** shaklida ayni fikr ifodalanadi.

O'zbek maqoli **“El bir bo'lsa, tog'ni ko'chiradi”** da mubolag'a qo'llanilib, birlikning kuchi bo'rttirib tasvirlangan. Turk maqolida bu fikr **“Birlikten kuvvet doğar”** tarzida umumlashtirish orqali beriladi.

Shuningdek, o'zbek maqoli **“Sabr qilgan – daryo kechar”** da sabr kuchi ramziy obraz orqali ifodalanadi. Turk maqolida esa **“Sabreden derviş muradına ermiş”** deyiladi, bunda diniy-obrazli tasvir ustunlik qiladi.

Yana o'zbek maqoli **“Til – boshga balo”** bo'lib, bunda **“til”** ramziy ma'noda insonning gap-so'zi sifatida talqin qilinadi. Turk tilida ham **“Dil yarası geçmez”** kabi maqollar orqali so'zning kuchi badiiy tarzda ifodalanadi.

Ko‘rinib turibdiki, har ikkala xalq maqollarida metafora, mubolag‘a, kinoya va ramziy tasvir kabi badiiy vositalar keng qo‘llaniladi. Bu vositalar maqollarning ta’sirchanligini oshiradi va ularni xalq orasida tez yodda qoladigan qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va turk xalq maqollari xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, tafakkuri va ma’naviy qarashlarini o‘zida mujassam etgan muhim folklor namunalaridan biridir. Maqollarda qo‘llangan badiiy tasvir vositalari fikrning obrazli, ta’sirchan va esda qolarli tarzda ifodalanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, metafora, mubolag‘a, takror, ramziy tasvir va qarama-qarshilik kabi vositalar maqollarning badiiy qiymatini yanada oshiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va turk maqollarida mazmun hamda badiiy ifoda jihatidan ko‘plab o‘xshashliklar mavjud. Bu hol ikki xalqning tarixiy, madaniy va til jihatidan yaqinligini namoyon etadi. Shu bilan birga, ayrim maqollarda uchraydigan obraz va ifoda vositalaridagi farqlar har bir xalqning milliy tafakkuri hamda o‘ziga xos badiiy dunyoqarashini aks ettiradi. Demak, maqollardagi badiiy tasvir vositalarini qiyosiy o‘rganish nafaqat folklorshunoslik, balki tilshunoslik va madaniyatlararo aloqalarni tadqiq etishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dr.I.Yoldashev,T.Öztürk,Y.Öztürk.O‘zbek va Turk maqollari iboralari. – Toshkent, 1998, – B. 87,90
2. N.UYANIKER.Atasözleri – Deyimler – Halk inanışları. – Istanbul, 2006, – B. 79,80.
3. O.Safarov.O‘zbek xalq o‘g‘zaki ijodi. –Toshkent:Musiqa, 2010. – B. 5,6.
4. O.Xojiyeva.O‘zbek va Turk maqollarining tasnifi. Bookmany print, 2025. – B.15
5. T.Mirzayev,A.Musoqulov,B.Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. – Sharq,2005, – B. 4,5,16.

